



## MOLIYAVIY INQIROZ VA PUL OQIMLARINI BOSHQARISHDAGI MUAMMOLAR

Abduraximova Adiba G'ayratovna  
Xalqaro Innovatsion Universiteti "Iqtisodiyot va moliya"  
kafedrası o'qituvchisi  
abdurahimovaadiba604@gmail.com  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15619888>

### ARTICLE INFO

Received: 01<sup>st</sup> June 2025  
Accepted: 05<sup>th</sup> June 2025  
Published: 07<sup>th</sup> June 2025

### KEYWORDS

Pul oqimi, pul oqimi hisobotlari, korxonaning moliyaviy faoliyatini boshqarish, operatsion pul oqimlari, investitsion pul oqimlari, moliyaviy pul oqimlari, tadbirkorlik, kapital, biznesni boshqarish, innovatsion yondashuv, rejalashtirish va rivojlanish strategiyalari, moliyaviy inqirozlar, to'lovga qobiliyatsizlik holatlari, naqd pul tanqisligi holati, debitorlik va kreditorlik siyosati, qayta tiklanadigan kapital, mablag', risk, ishlab chiqarish, qarz yoki tashqi investor, moliyaviy resurs, texnologiya, iqtisodiy markaz, raqobatbardoshlik, soliq imtiyozlari.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada korxonalarining pul oqimlarini boshqarishda tejamkorlik, mablag'lardan o'z ornida va samarali foydalanishning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Pul oqimi faqat moliyaviy resurslar emas, balki biznesning muvaffaqiyatli faoliyat yuritilishi uchun zarur bo'lgan barcha omillarni o'z ichiga oladi. Bu yerda gap xarajatni keskin kamaytirish payida emas, balki pulni ahamiyatga qarab sarflash payida bormoqda. Xarajatlarni oqilona rejalashtirish ko'p topmasdan ham korxonalar faoliyatida daromadni oshirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham pul va vaqtni sarflash uchun reja tuzib, unga qarab amal qilinsa, korxonalar qilingan mehnatlari natijalarini eng oliy tarzda olishlariga imkon beradi.*

Bozor iqtisodiyoti sharoitida yashab qolishga harakat qilish bor moliyaviy resurslarlarni boshqarishni yaxshi bilishni, kapital tarkibini va tashkil topish manbaalarini shakllantirishda moliyaviy mustaqillikni to'g'ri tashkil etishni, eng muhimi samarali va natijali ishlab chiqarishni, tijorat va moliyaviy faoliyatini yo'lga qo'yishni talab etadi.

Pul oqimlari — bu korxonaning moliyaviy faoliyati doirasida kelib tushadigan va chiqib ketadigan barcha pul mablag'larining harakati bo'lib hisoblanadi. Pul oqimlarini boshqarish, korxonaning to'lovga qobiliyatini saqlab qolish, investitsiyalarni rejalashtirish, kreditorlik va debitorlik qarzlarini boshqarish, shuningdek moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ammo bu jarayon ko'plab muammolar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Moliyaviy oqimlarni tahlil qilish orqali korxonalar qayerdan va qancha pul kelayotganini, qayerga va qanday maqsadda mablag' sarflanayotganini, hamda qaysi faoliyat yo'nalishlari foydali yoki zararli ekanligini aniqlaydilar.

Korxonaning moliyaviy faoliyatini boshqarishda to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyati loyihani amalga oshirish uchun manbalarning mavjudligi bilan bevosita bog'liq. Naqd pul korxonaning eng likvid aktivi bo'lganligi sababli, kerakli vaqt ichida kreditorlik qarzlarni to'lash, asbob-uskunalar, xom ashyo va materiallarni sotib olish uchun ishlatilishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, naqd va naqd pulsiz mablag'lar ko'rinishidagi aktivlar juda harakatchan bo'lib, tezda boshqa aktivlarga aylantirilishi yoki majburiyatlarni to'lash uchun ishlatilishi mumkin. Pul oqimlarini boshqarish deganda, tashkilotning pul mablag'larini samarali boshqarish, ularni oqilona taqsimlash, mablag'larning vaqtida kelib tushishini nazorat qilish va chiqimlarning to'g'ri rejalashtirilishini ta'minlash tushuniladi. Bu boshqaruv quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- a) Operatsion pul oqimlarini boshqarish - asosiy faoliyatdan tushgan va ketgan pul mablag'lari.
- b) Investitsion faoliyatdan kelib chiqadigan pul oqimlari – aktivlar sotib olish yoki sotish bilan bog'liq pul oqimlari.
- c) Moliyaviy faoliyatdan tushadigan pul oqimlari – kredit olish, qarz to'lash, dividend to'lash kabi pul harakatlari.

Pul oqimlarini to'g'ri rejalashtirish korxonaga uchun moliyaviy barqarorlikning kafolati hisoblanadi:

Pul oqimi balansini saqlash - operatsion daromadlar bilan xarajatlar o'rtasida muvozanatni saqlash korxonaning kunlik faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi. Mablag'larning doimiy kirib kelishi va oqib chiqishini tahlil qilish orqali moliyaviy oqimlarning samaradorligini oshirish mumkin. Balansni saqlash korxonaning moliyaviy rejalarini aniq bajarishga xizmat qiladi.

Likvidlikni ta'minlashda korxonaga har doim qisqa muddatli majburiyatlarini bajarish uchun yetarli pul mablag'lariga ega bo'lishi zarur. Bu, ayniqsa, operatsion xarajatlarni o'z vaqtida qoplash va kredit to'lovlarini amalga oshirishda muhim hisoblanadi. Yaxshi likvidlik boshqaruvi korxonaning ishonchliligini oshiradi va moliyaviy inqiroz holatlarini oldini olishga yordam beradi.

Pul oqimini prognozlashda kelgusidagi daromadlar va xarajatlarni aniq prognozlash korxonaning rejalashtirish jarayonlarini optimallashtiradi. Pul oqimining prognozi moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi va yangi investitsion imkoniyatlarni aniqlashda yordam beradi. Yaxshi prognozlash usullari korxonaning o'sish strategiyasiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Moliyaviy zaxiralarni shakllantirishda kutilmagan xarajatlar yoki moliyaviy inqiroz holatlarida moliyaviy zaxiralar muhim rol o'ynaydi. Ushbu zaxiralar yordamida korxonaga moliyaviy barqarorligini saqlab qoladi va kutilmagan holatlarga moslashuvchan bo'lib qoladi. Moliyaviy zaxiralarning mavjudligi, shuningdek, investorlar va kreditorlar oldida ishonchni mustahkamlashda yordam beradi.

Moliyaviy xavflarni boshqarishda pul oqimi boshqaruvi korxonaga moliyaviy inqiroz davrida moslashish imkonini beradi. Agar korxonaga likvid mablag'larga ega bo'lsa, qisqa muddatli qarzlarni to'lash va operatsiyalarni davom ettirish osonlashadi. Bu esa, o'z navbatida, mijozlar va yetkazib beruvchilar bilan barqaror munosabatlarni saqlashga xizmat qiladi.

Investitsion qarorlarni qabul qilishda korxonalar o'z investitsiya loyihalarini moliyaviy imkoniyatlarga mos ravishda amalga oshirishi kerak. Bu barqaror o'sishni ta'minlaydi. Pul oqimining aniq tahlili orqali korxonalar yuqori daromad keltiruvchi loyihalarni tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Dividend siyosatida pul oqimi to'g'ri boshqarilganda, korxonaga o'z aktsiyadorlariga muntazam ravishda dividend to'lash imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa investitsiyalarni jalb qilishni osonlashtiradi. Dividend siyosati korxonaning moliyaviy sog'lomligini aks ettiradi va uning obro'sini oshiradi.

Pul oqimlarini to'g'ri rejalashtirish korxonaga uchun moliyaviy barqarorlikning kafolati hisoblanadi. Pul oqimlarini boshqarish jarayoni ko'plab muammolar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Avvalom bor quyidagi asosiy muammolar uchraydi:

Noto'g'ri rejalashtirishda tushum va chiqimlar prognozlarining real holatga mos kelmasligi, hamda moliyaviy oqimlar bo'yicha aniq strategiyaning yo'qligi yuz berishi mumkin.

To'lovga qobiliyatsizlik holatlari yuz berganda debitorlarning o'z vaqtida to'lovlarni amalga oshirmasligi, operatsion xarajatlarning yuqoriligi va tushumlarning sustligi holatlariga duch kelinishi mumkin.

Naqd pul tanqisligi holati yuzaga kelasa, daromadlar o'sib borayotgan bo'lsa-da, naqd mablag' yetishmovchiligi tufayli operatsiyalarni to'xtab qolishi holatlari yuzaga kela boshlaydi. Noto'g'ri kredit siyosati amalga oshirilsa, keraksiz kreditlardan foydalanish yoki ularni o'z vaqtida qaytara olmaslik va foiz stavkalarining yuqoriligi bilan bog'liq xarajatlar yuzaga kelish ehtimoli yuqori bo'lishi mumkin.

Agar yuqoridagi muammolar bartaraf etilmasa, korxonalar to'lovga qobiliyatsizlik holati, kredit reytingining pasayishi, investitsiyalarning qisqarishi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarining izdan chiqishi, ijtimoiy va iqtisodiy yo'qotishlar kabi salbiy oqibatlariga duch kelishi mumkin.

Pul oqimlari boshqaruvidagi muammolarni bartaraf etish uchun amaliy chora-tadbirlarni ko'rish zarur. Pul oqimlarini rejalashtirishni takomillashtirish zarurati tug'iladi. Bunda qisqa, o'rta va uzoq muddatli moliyaviy rejalarni ishlab chiqish va kutilmagan holatlar uchun zahira rejalari yaratish talab etiladi. Xarajatlar va daromadlar o'rtasida vaqt bo'yicha nomuvofiqlik bo'ladi. Bunda pul oqimlarining mavsumiyliги inobatga olinmaydi.

Debitorlik va kreditorlik siyosatini optimallashtirish ham muhim ahamiyatga ega. Bunda mijozlar tomonidan to'lovlarning kechiktirilishi, hamda yaroqsiz yoki shubhali qarzlarning ko'payishi holatlari yuzaga kelish ehtimoli yuqari darajada bo'lishi kutiladi. Debitorlarga nisbatan qat'iy nazorat tizimini joriy etish, to'lov muddatlarini qisqartirish va monitoring qilishni o'z vaqtida bajarish yaxshi samara beradi. Kreditorlik majburiyatlarning samarasiz boshqarilishi natijasida to'lovlarning kechiktirilishi hisobiga foiz va penya to'lanishi, hamda yetkazib beruvchilar bilan ishonchsizlik holatlari yuzaga kelishi mumkin. Bu holatga tushmaslik uchun qat'iy nazorat tizimini joriy etish va monitoring qilishni o'z vaqtida bajarish yaxshi samara beradi. Zaxiralarni haddan tashqari yig'ish natijasida aylanma mablag'lar zaxiralarga bog'lanib qoladi. Natijada naqd pul aylanishi sekinlashadi. Moliyalashtirish manbalarining yetishmasligi sababli kredit olish imkoniyatlari cheklangan bo'ladi, hamda ichki mablag'lar yetarli emasligi sababli faoliyat cheklanadi. Moliyaviy intizomning pastligi ham juda muhim omil bo'lib hisoblanadi. Qachonki, moliyaviy intizom past bo'lsa, budjet intizomiga rioya qilinmaslik holatlariga duch kelish ko'payib boradi. Xarajatlarni optimallashtirish ham muammolarni bartaraf etish uchun muhim omil bo'lib hisoblanadi. Bunda xarajatlarni tahlil qilish va samarasiz sarflarni qisqartirish, resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash talab etiladi. Naqd pul oqimlarini nazorat qilish ham muammolarni bartaraf etish uchun muhim jihat bo'lib hisoblanadi. Bunda har kunlik, haftalik va oylik pul oqimlari tahlilini o'z vaqtida va to'g'ri yuritish muhim jihat bo'lib hisoblanadi. Xarajatlar ustidan nazorat sust bo'ladi. Moliyaviy rejalashtirish va prognozlash bo'yicha malakasiz boshqaruv, tahliliy ishlarning sustligi, bozor sharoitidagi noaniqlik va inflyatsiya xavfi, ichki nazorat mexanizmlarining samarasizligi ham muammolarning asosiy sabablari va ularning oqibatlari pul oqimlari boshqaruvini takomillashtirish yo'llarini izlash, chuqur tahlil qilishni hamda to'g'ri qaror qabul qilishni talab etadi.

Mablag'lar yo'qligi yoki yetishmasligi natijasida korxonalar kreditorlar va boshqa tashqi sub'ektlarga qaram bo'lib qoladi. Garovning yetarliligi joriy to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirish, korxonalar faoliyati uchun zarur bo'lgan materiallarni (xom ashyo va materiallarni) sotib olish, avanslar, hisoblangan mablag'lar va ish haqini to'lash, joriy majburiyatlarni o'z vaqtida to'lash, uzoq muddatli aktivlarga ega bo'lish imkonini beradi.

Moliyaviy inqirozlar korxonalarining pul oqimlariga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatadi. Likvidlikning keskin kamayishi, to'lov intizomining buzilishi va moliyalashtirish imkoniyatlarining cheklanishi – bularning barchasi real sektor ishtirokchilarini samarali

moliyaviy boshqaruv qarorlarini qabul qilishga majbur etadi. Aynan shu sharoitda pul oqimlarini to'g'ri boshqarish korxonaning tirik qolishi va barqaror faoliyat yuritishining muhim omiliga aylanadi.

Moliyaviy inqiroz sharoitida korxonalar uchun pul oqimlarini boshqarish muhim strategik vazifa hisoblanadi. Bu davrda noto'g'ri qarorlar korxonaning moliyaviy barqarorligini izdan chiqarishi mumkin. Bu borada qabul qilish mumkin bo'lgan muhim qarorlar va tavsiyalar keltirilgan:

Korxonada o'zining kunlik, haftalik va oylik pul oqimlari bo'yicha rejalar tuzishi, real va kutilayotgan daromadlar bilan xarajatlarni taqqoslashi zarur. Prognozlash moliyaviy qarorlarni oldindan rejalashtirish imkonini beradi.

Inqiroz sharoitida xarajatlarni kamaytirish bo'yicha strategik qarorlar qabul qilish zarur. Bunda korxonada xarajatlarini majburiy (ish haqi, soliq) va ixtiyoriy (marketing, xizmat safarlari) guruhlarga ajratishi muhimdir.

Inqirozda ayrim yo'nalishlar bo'yicha savdo hajmi pasaysa-da, boshqa segmentlar rivojlanishi mumkin. Shu bois korxonalar yangi bozorlarni izlash, mahsulot yoki xizmatlarni moslashtirish orqali daromad manbalarini ko'paytirishlari lozim.

Pul oqimlarining muvozanatini saqlashda debitorlik qarzlarni nazorat qilish muhim. Korxonalar to'lovni tezlashtirish bo'yicha mijozlar bilan muzokaralar o'tkazishi, shuningdek, kreditorlardan to'lov muddatini uzaytirishni so'rashi kerak.

Inqiroz davrida davlat tomonidan taqdim etilayotgan imtiyozli kreditlar, subsidiyalar, soliq yengilliklari kabi imkoniyatlardan foydalanish zarur. Korxonada shuningdek, favqulodda holatlar uchun jamg'arilgan zaxira mablag'larini ham ishga solishi mumkin.

Pul oqimlarini kuzatish va boshqarish uchun zamonaviy IT yechimlaridan foydalanish, shuningdek onlayn savdo va xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirish orqali xarajatlarni kamaytirish va daromadni oshirish mumkin.

Moliyaviy inqiroz davrida pul oqimlarini samarali boshqarish – bu nafaqat moliyaviy barqarorlikni saqlab qolish, balki kelajakdagi o'sishni ta'minlaydigan omildir. Korxonalar o'z moliyaviy boshqaruv strategiyalarini qayta ko'rib chiqishlari, moslashuvchanlikni oshirishlari va innovatsion yondashuvlarni joriy etishlari orqali bu qiyin davrdan muvaffaqiyatli o'tishlari mumkin.

Moliyaviy inqirozlar va pul oqimlarini boshqarishdagi muammolar tashkilotlarning barqarorligiga jiddiy xavf tug'diradi. Shu sababli, pul oqimlarini strategik rejalashtirish, risklarni baholash, va moliyaviy ko'rsatkichlar monitoringi orqali inqirozga tayyorgarlik ko'rish muhimdir.

Har qanday korxonaning pul oqimlari boshqaruvni ifodalaydi va unga e'tibor berish juda muhimdir. Pul oqimi boshqaruvi har qanday korxonada uchun muvaffaqiyat va barqarorlikning asosiy omillaridan biri bo'lib hisoblanadi. Korxonalar moliyaviy jihatdan barqaror bo'lishi uchun nafaqat foyda olishga, balki operatsion, investitsion va moliyalashtirish faoliyatlaridan kelib chiqadigan pul oqimini samarali boshqarishga e'tibor qaratishlari kerak.

Pul oqimlarini samarali boshqarish — bu har qanday tashkilotning moliyaviy barqarorligi va uzoq muddatli muvaffaqiyatining asosidir. Yuqorida keltirilgan muammolarni chuqur tahlil qilish va ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali korxonalar moliyaviy xavflarni kamaytirib, o'sish va rivojlanishni ta'minlashi mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jalolova D. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari - T.: Moliya instituti, 2004. - 25 b
2. Karimov A., Kurbanbayev J., Jumanazarov S. Buxgalteriya hisobi. Darslik. - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2018 y.
3. Sotivoldiev A.S. Buxgalterning izohli lug'ati. -T.: "Norma", 2010 y.
4. Xolbekov R.O. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Darslik. - T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011y.

5. G'ulomova F.G'. Buxgalteriya hisobini mustaqil o'rganish uchun qo'llanma. -T.: Norma, 2010 y.
6. [www.mf.uz](http://www.mf.uz) – Moliya Vazirligi (Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari)
7. Bozarov, D. (2023). Bo'lajak iqtisodchi talabalarning iqtisodiy kompetensiyasini rivojlantirishning matematik tahlili. *Академические исследования в современной науке*, 2(27), 84-90.
8. Bozarov, D. (2022). PROBLEMS OF SYSTEMS OF LINEAR ALGEBRAIC EQUATIONS. *Science and Innovation*, 1(2), 163-171.
9. Olimovich, T. E., Uralovich, B. D., & Matlubovich, M. J. (2021). Effective Methods in Teaching Mathematics. *International Journal on Orange Technologies*, 3(3), 88-90.
10. Allamova, M., & Bozarov, D. (2023). Trigonometrik tengsizliklar yechimlarining innovatsion qo'llanilishi. *Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук*, 3(1), 75-78.
11. Maxmudovna, G. M., Olimovich, T. E., & Uralovich, B. D. (2021). Types and uses of mathematical expressions. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 746-749.
12. Bozarov, D. (2025). EKONOMETRIYADA CHIZIQLI VA CHIZIQSIZ REGRESSIYA MODELLARINING MATEMATIK TAHLILI. *Modern Science and Research*, 4(4), 1020-1025.
13. Uralovich, B. D. (2025). THE IMPORTANCE AND RELEVANCE OF MATHEMATICS FOR TEACHERS OF PRIMARY EDUCATION. *AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING*, 3(4), 363-366.

INNOVATIVE  
ACADEMY